

# **POLYSEMY OF THE KOREAN VERB **안다** AND MECHANISMS OF ITS SEMANTIC EXPANSION**

Mamirjonova Mohchehrabonu Ulugbek qizi  
Uzbekistan State World Languages University  
Lecturer, Department of Korean Philology  
Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** This article examines the polysemous nature of the Korean verb **알다** and the mechanisms of its semantic expansion. The basic meanings of the verb, associated with the notions of “to know,” “to be aware,” and “to have information,” are regarded as its semantic core. On this basis, the article analyzes its derived meanings, including “to be acquainted with,” “to understand,” “to perceive,” “to sense,” “to feel,” “to be able to,” “to evaluate,” “to suppose,” and “to accept.” Particular attention is paid to the use of **알다** in such constructions as **N을/를 알다**, **-(으)르 줄 알다**, **-는지 알다**, **-으로 알다**, **알겠다**, and **알 바 아니다**, which are examined from semantic and cognitive perspectives. The article also shows that the meaning of the verb is specified depending on the speech situation, the type of object, and the grammatical construction. The results of the study indicate that **알다** is an important cognitive verb in Korean, expressing not only the process of cognition, but also perception, emotional experience, evaluation, supposition, and the speaker’s communicative response.

**Keywords:** **알다**, polysemy, semantic expansion, cognitive verb, Korean language, lexical semantics, grammatical construction, language pedagogy.

## **ПОЛИСЕМИЯ КОРЕЙСКОГО ГЛАГОЛА **안다** И МЕХАНИЗМЫ ЕГО СЕМАНТИЧЕСКОГО РАСШИРЕНИЯ**

**Мамирджонова Мохчехрабону Улугбек кизи**

Узбекский государственный университет мировых языков

Преподаватель кафедры корейской филологии

Ташкент, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье анализируются полисемантические особенности корейского глагола **알다** и механизмы его семантического расширения. В качестве семантического центра рассматриваются его базовые значения, связанные с понятиями «знать», «быть осведомлённым», «обладать информацией». На этой основе раскрываются производные значения данного глагола, такие как «быть знакомым», «осознавать», «воспринимать», «ощущать», «чувствовать», «уметь», «оценивать», «предполагать» и «принимать». Особое внимание уделяется употреблению глагола **알다** в конструкциях **N 을/를 알다, -(으)ㄹ 줄 알다, -는지 알다, -으로 알다, 알겠다, 알 바 아니다**, которые рассматриваются с семантической и когнитивной точек зрения. Также в статье показывается, что значение данного глагола конкретизируется в зависимости от речевой ситуации, типа объекта и грамматической модели. Результаты исследования свидетельствуют о том, что **알다** в корейском языке является важным когнитивным глаголом, выражающим не только процесс познания, но и восприятие, эмоциональный опыт, оценку, предположение и коммуникативную реакцию говорящего.

**Ключевые слова:** **알다**, многозначность, полисемия, семантическое расширение, когнитивный глагол, корейский язык, лексическая семантика, грамматическая конструкция, лингводидактика.

KOREYS TILIDAGI **알다** FE'LINING KO'P MA'NOLIK  
XUXUSIYATLARI VA SEMANTIK KENGAYISH MEXANIZMLARI

*Mamirjonova Mohchehrabonu Ulug'bek qizi*

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys tilidagi **알다** fe'lining ko'p ma'nolilik xususiyatlari va semantik kengayish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur fe'lining dastlabki "bilmoq", "xabardor bo'lmoq", "ma'lumotga ega bo'lmoq" kabi asosiy ma'nolari semantik markaz sifatida olinib, undan kelib chiqqan "tanimoq", "idrok etmoq", "sezmoq", "his qilmoq", "uddalay olmoq", "baholamoq", "taxmin qilmoq" va "qabul qilmoq" kabi hosila ma'nolari ko'rib chiqiladi. Maqolada **알다** fe'lining **N을/를 알다, -(으)르 줄 알다, -는지 알다, -으로 알다, 알겠다, 알 바 아니다** kabi konstruksiyalardagi qo'llanishlari semantik va kognitiv jihatdan izohlanadi. Shuningdek, mazkur fe'ning nutqiy vaziyat, obyekt turi va grammatik model ta'sirida turli ma'no qirralarini yuzaga chiqarishi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari **알다** fe'lining koreys tilida nafaqat bilish jarayonini, balki insonning idroki, hissiy tajribasi, baholashi, taxmini va kommunikativ munosabatini ham ifodalovchi muhim kognitiv fe'l ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: **알다**, ko'p ma'nolilik, polisemiya, semantik kengayish, kognitiv fe'l, koreys tili, leksik semantika, grammatik konstruksiya, lingvodidaktika.

#### Kirish

Til birliklarining ma'no jihatdan kengayishi leksik semantikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa fe'llar doirasidagi ko'p ma'nolilik alohida e'tiborga loyiqdir, chunki fe'l gapning mazmuniy markazini tashkil etadi va nutqda voqelik, harakat, holat, munosabat hamda subyektning ichki tajribasini ifodalashda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Shu jihatdan koreys tilidagi **알다** fe'li ma'no

jihattan keng tarmoqlangan, nutqda faol qo‘llanadigan va turli grammatik qurilmalar bilan birikib, har xil semantik vazifalarni bajaradigan birliklardan biridir.

알다 fe‘lining eng umumiy ma‘nosi “bilmoq”, “xabardor bo‘lmoq”, “anglamoq” kabi tushunchalar bilan bog‘liq. Biroq real nutqda bu fe‘l faqat ma‘lumotga ega bo‘lishni bildirmaydi. U shaxsni tanish, biror narsani sezish, hissiy holatni his qilish, vaziyatni baholash, taxmin qilish, taklif yoki buyruqni qabul qilish kabi turli ma‘nolarni ham ifodalaydi. Demak, 알다 fe‘lining ma‘nosi faqat lug‘aviy asos bilan emas, balki u ishtirok etayotgan grammatik shakl, obyekt turi, kontekst va kommunikativ vaziyat bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi koreys tilidagi 알다 fe‘lining ko‘p ma‘noli qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, uning semantik kengayish yo‘nalishlarini izohlash hamda bu jarayonda obyekt turi va grammatik konstruksiyalarning o‘rnini yoritishdan iborat. Tadqiqotda 알다 fe‘lining asosiy va hosila ma‘nolari semantik markaz hamda kognitiv kengayish tamoyillari asosida tahlil qilinadi.

#### 알다 fe‘lining asosiy lug‘aviy-semantik xususiyatlari

Koreys tilidagi 알다 fe‘lining bosh ma‘nosi ma‘lumot yoki bilimga ega bo‘lish bilan bog‘liq. Bu holatda mazkur fe‘l tashqi dunyoga oid muayyan axborotning subyekt ongida mavjudligini bildiradi. Masalan, 주소를 알다 birikmasida manzilni bilish, 이름을 알다 birikmasida ismni bilish, 사실을 알다 birikmasida esa biror fakt yoki voqelikdan xabardor bo‘lish nazarda tutiladi.

Bu ma‘no 알다 fe‘lining semantik markazi sifatida qaralishi mumkin. Chunki uning boshqa ko‘plab ma‘nolari aynan “bilish” tushunchasidan kelib chiqadi. Inson biror narsani bilishi orqali uni taniydi, idrok etadi, unga baho beradi, undan xulosa chiqaradi yoki uni qabul qiladi. Shuning uchun 알다 fe‘lining semantik tizimi bilish jarayonining turli bosqichlari bilan bog‘liq holda shakllanadi.

알다 fe‘lining asosiy qo‘llanishlaridan biri N 을/를 알다 shaklidir. Bu konstruksiyada obyekt vazifasidagi ot turlicha bo‘lishi mumkin. Agar obyekt fakt,

ma'lumot yoki hodisani bildirsa, fe'l "bilmoq", "xabardor bo'lmoq" ma'nosida qo'llanadi. Masalan, 문제를 알다 "muammoni bilmoq", 이유를 알다 "sababini bilmoq", 사실을 알다 "haqiqatni bilmoq" kabi birliklarda mazkur fe'l o'zining asosiy lug'aviy ma'nosini saqlaydi.

Shaxsga nisbatan qo'llanganda esa 알다 fe'li oddiy bilimni emas, balki tanishlik munosabatini bildiradi. Masalan, 그 사람을 알다 birikmasi "u odam haqida ma'lumotga ega bo'lmoq" degan ma'noni emas, balki "u odamni tanimoq" ma'nosini anglatadi. Bu holatda ma'no "axborotga ega bo'lish"dan "shaxs bilan aloqadorlikka ega bo'lish" tomon kengayadi. Demak, obyektning semantik turi fe'l ma'nosining o'zgarishida muhim omil hisoblanadi.

알다 fe'lining sezgi va idrok bilan bog'liq ma'nolari

알다 fe'lining ma'no kengayishida sezgi va idrok bilan bog'liq qo'llanishlar alohida o'rin tutadi. Bu holatda fe'l bevosita aqliy bilimni emas, balki sezgi organlari orqali anglangan tajribani bildiradi. Masalan, 맛을 알다 birikmasi "ta'mni bilmoq" deb tarjima qilinsa-da, mazmunan "ta'mni his qilmoq", "ta'mni ajrata olmoq" ma'nolariga yaqin turadi. Xuddi shuningdek, 냄새를 알다 "hidni sezmoq", 추운 것을 알다 "sovuqni his qilmoq" kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Bu holatda bilish jarayoni tashqi axborotni mantiqiy o'zlashtirishdan ko'ra, sezgi orqali idrok etishga yaqinlashadi. Shuning uchun 알다 fe'lining "bilmoq" ma'nosi "sezmoq", "idrok etmoq", "anglab yetmoq" kabi ma'nolarga kengayadi. Mazkur kengayish inson tajribasida bilim va sezgining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Koreys tilida bunday qo'llanishlar ko'pincha kundalik nutqda uchraydi. Inson biror ta'mni, hidni, sovuqlikni yoki boshqa sezgi holatini o'z tajribasi orqali anglaydi. Shu bois 알다 fe'li bunday kontekstlarda obyektiv bilimni emas, balki subyektiv idrokni ifodalaydi. Bu esa fe'lining kognitiv xususiyatini yanada kuchaytiradi.

알다 fe'lining hissiy holatni ifodalashi

알다 fe'lining yana bir muhim semantik kengayish yo'nalishi hissiyot bilan bog'liqdir. Bunda fe'l insonning ichki kechinmasi, ruhiy holati yoki emotsional tajribasini anglatadi. Masalan, 마음을 알다 birikmasi "ko'nglini bilmoq", 사랑을 알다 "muhabbatni bilmoq", 슬픔을 알다 "qayg'uni bilmoq" ma'nolarida qo'llanishi mumkin. Bunday birliklarda "bilish" oddiy axborotga ega bo'lish emas, balki muayyan hissiy holatni ichki tajriba sifatida his qilishni bildiradi.

Masalan, 사랑을 알다 birikmasida inson muhabbat haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lishi emas, balki uni boshdan kechirishi, his qilishi nazarda tutiladi. Xuddi shuningdek, 고통을 알다 "azobni bilmoq" deganda azob haqida eshitgan bo'lish emas, balki uni o'z hayotida his qilgan bo'lish tushuniladi. Demak, bu yerda 알다 fe'li "his qilmoq", "kechirmoq", "ichki tajriba orqali anglamoq" ma'nolariga ega bo'ladi.

Bu turdagi semantik kengayish inson ongida bilish va his qilish jarayonlarining bir-biridan ajralmasligini ko'rsatadi. Koreys tilida 알다 fe'lining hissiyot bilan bog'liq qo'llanishlari ayniqsa badiiy, publitsistik va emotsional nutqda muhim ahamiyat kasb etadi.

-(으)ㄹ 줄 알다 konstruksiyasi va qobiliyat ma'nosi

알다 fe'lining ko'p ma'noliligida -(으)ㄹ 줄 알다 konstruksiyasi alohida o'rin egallaydi. Bu shakl biror ishni bajarish usulini bilish, ya'ni qobiliyat yoki malakaga ega bo'lish ma'nosini bildiradi. Masalan, 한국어를 읽을 줄 알다 "koreyscha o'qiy olmoq", 운전할 줄 알다 "mashina hayday olmoq", 요리할 줄 알다 "ovqat pishira olmoq" kabi qo'llanishlarda 알다 fe'li bevosita bilim emas, balki amaliy ko'nikmani ifodalaydi.

Bu yerda 줄 elementi "usul", "yo'l", "qilish tarzi" ma'nosini anglatadi. Shuning uchun -(으)ㄹ 줄 알다 konstruksiyasi so'zma-so'z "qanday qilish yo'lini bilmoq" mazmuniga ega bo'lib, nutqda "qila olmoq" ma'nosiga yaqinlashadi. Demak, 알다 fe'lining semantikasi nazariy bilimdan amaliy qobiliyatga tomon kengayadi.

Bu holat koreys tilini o'rganuvchilar uchun juda muhimdir. Chunki o'zbek tilida "bilmoq" fe'li ham ayrim hollarda "qila olmoq" ma'nosini bildiradi: masalan, "suzishni bilaman", "mashina haydashni bilaman". Shu jihatdan koreys tilidagi -(으)ㄴ 줄 알다 va o'zbek tilidagi "-ishni bilmoq" shakllari o'rtasida ma'lum semantik yaqinlik mavjud. Biroq koreys tilida bu konstruksiya grammatik jihatdan mustahkam qolip sifatida shakllangan bo'lib, uni alohida o'rgatish zarur.

알다 fe'lining baholash va talqin qilish ma'nolari

알다 fe'li ayrim kontekstlarda "baholamoq", "shunday deb bilmoq", "muayyan tarzda talqin qilmoq" ma'nolarini ham bildiradi. Bunday holat ko'pincha NP 를 NP 로 알다 shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, 그것을 실수로 알다 "buni xato deb bilmoq", 그 말을 허락으로 알다 "bu gapni ruxsat deb qabul qilmoq" kabi qo'llanishlarda subyekt muayyan holatni o'z mezoni asosida baholaydi.

Bu yerda 알다 fe'li faktik bilimni emas, balki subyektning talqini va xulosasini bildiradi. Ya'ni so'zlovchi tashqi voqelikni qanday bo'lsa, shunday qabul qilmaydi, balki uni o'z qarashi va tajribasi asosida ma'lum bir ma'noga keltiradi. Shu sababli bu qo'llanishlarda 알다 fe'li bilish jarayonining baholash bosqichini ifodalaydi.

알아서 shakli ham mazkur ma'no bilan bog'liq. Masalan, 알아서 하다 birikmasi "o'zi bilib qilmoq", "vaziyatga qarab mustaqil hal qilmoq" ma'nolarini beradi. Bunda subyekt vaziyatni tushunadi, baholaydi va shu asosda mustaqil qaror qabul qiladi. Demak, 알다 fe'li bunday kontekstda mustaqil fikrlash va vaziyatni baholash bilan bog'liq kognitiv harakatni bildiradi.

Taxmin va oldindan bilish ma'nolari

알다 fe'lining yana bir muhim kengaygan ma'nosi taxmin qilish, oldindan bilish yoki biror holatni shunday deb o'ylash bilan bog'liq. Bu ma'no, ayniqsa, -는지 알다 va -(으)ㄴ 줄 알다 konstruksiyalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Masalan, 어떻게 알았어? gapida so'zlovchi "buni qanday bilding?" deb so'rashi mumkin, lekin ayrim vaziyatlarda bu gap "qanday taxmin qilding?" degan

mazmunga ham ega bo'ladi. Xuddi shuningdek, 그렇게 될 줄 알았어 birikmasi "shunday bo'lishini bilgan edim" yoki "shunday bo'ladi deb o'ylagan edim" ma'nosida ishlatiladi.

Bu holatda **알다** fe'li aniq bilimni emas, balki subyektning oldindan taxmin qilishi yoki xulosaga kelishini ifodalaydi. Bunday ma'no bilish jarayonining murakkab kognitiv bosqichini ko'rsatadi. Chunki taxmin qilish mavjud axborot asosida kelajakdagi yoki yashirin holatni ongda tiklash bilan bog'liqdir.

Koreys tilida -(으)ㄹ 줄 **알다** konstruksiyasining ikki asosiy ma'nosi mavjud: biri "qila olmoq", ikkinchisi esa "deb o'ylamoq", "deb taxmin qilmoq". Masalan, 한국어를 할 줄 **알아**요 gapida u "koreyscha gapira olaman" ma'nosida bo'lsa, 네가 올 줄 **알았어** gapida "kelasan deb o'ylagan edim" ma'nosini bildiradi. Bu ikki ma'no bir xil grammatik shaklda ifodalangani uchun koreys tilini o'rganuvchilar uchun ularni kontekst asosida farqlash muhim hisoblanadi.

**알다** fe'lining qabul qilish va kommunikativ vazifalari

Dialogik nutqda **알다** fe'li ko'pincha "tushundim", "xo'p", "qabul qildim", "mayli" kabi kommunikativ ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, **알겠어요** yoki **알았어요** shakllari suhbatdoshning aytgan gapini tushunganlikni bildirish bilan birga, ko'pincha buyruq, iltimos yoki taklifni qabul qilishni ham anglatadi.

Masalan, 도착하면 전화하세요 — **알겠어요** dialogida **알겠어요** shakli faqat "tushundim" ma'nosida emas, balki "aytganingizni bajaraman" degan rozilik ma'nosida ham qo'llanadi. Demak, bu yerda bilish jarayoni kommunikativ majburiyatni qabul qilishga aylanadi.

**알겠지?** shakli esa ogohlantirish, buyruq yoki maslahatni kuchaytiruvchi pragmatik vosita sifatida ishlatiladi. Bu shaklda so'zlovchi suhbatdoshdan nafaqat tushunishni, balki aytilgan gapni qabul qilishni ham kutadi. Shuningdek, **알 바 아니다** birikmasi "menga aloqasi yo'q", "mening ishim emas", "meni qiziqitirmaydi" kabi ma'nolarni bildiradi. Bu holatda **알다** fe'li salbiy munosabat, ya'ni mas'uliyat yoki daxldorlikni rad etish bilan bog'lanadi.

Shu jihatdan **알다** fe'li koreys tilida oddiy kognitiv fe'l bo'lish bilan cheklanmaydi. U dialogik muloqotda rozilik, tushunish, qabul qilish, befarqlik yoki mas'uliyatdan chekinish kabi pragmatik ma'nolarni ham ifodalaydi.

**알다** fe'lining semantik kengayish mexanizmlari

Yuqoridagi tahlillar asosida **알다** fe'lining ma'no kengayishida bir necha asosiy mexanizm faol ishtirok etishini ko'rish mumkin. Birinchi mexanizm obyekt turiga bog'liq semantik kengayishdir. Agar obyekt ma'lumot yoki fakt bo'lsa, fe'l "bilmoq" ma'nosida keladi; obyekt shaxs bo'lsa, "tanimoq"; obyekt sezgi bo'lsa, "idrok etmoq"; obyekt hissiy holat bo'lsa, "his qilmoq"; obyekt bajarish usuli bo'lsa, "qila olmoq" ma'nosini bildiradi.

Ikkinchi mexanizm kognitiv jarayon bosqichlari bilan bog'liq. Bilish jarayoni faqat axborotni qabul qilishdan iborat emas. Inson axborotni qabul qiladi, uni sezadi, ichki tajribasi bilan bog'laydi, baholaydi, unga nisbatan taxmin hosil qiladi va nihoyat uni qabul qiladi yoki rad etadi. **알다** fe'lining "baholamoq", "taxmin qilmoq", "qabul qilmoq" kabi ma'nolari aynan shu kognitiv jarayon natijasida yuzaga keladi.

Uchinchi mexanizm grammatik konstruksiyalar bilan bog'liq. Masalan, N 을 /를 **알다** shakli ko'proq obyektga oid bilim yoki tanishlikni bildirsa, -(으)ㄴ 줄 **알다** qobiliyat yoki taxmin ma'nosini yuzaga chiqaradi. -는지 **알다** shakli noma'lum holat, savol yoki taxminiy bilim bilan bog'liq bo'ladi. NP 를 NP 로 **알다** shakli esa baholash va talqin qilish ma'nosini ifodalaydi. **알겠다**, **알았어요**, **알 바 아니다** kabi shakllar esa muloqotda pragmatik vazifalarni bajaradi.

Demak, **알다** fe'lining ko'p ma'noliligi tasodifiy hodisa emas. U insonning bilish faoliyati, tajribasi, sezgisi, hissiy holati va kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli mazkur fe'l koreys tilidagi eng muhim kognitiv birliklardan biri sifatida baholanishi mumkin.

**알다** fe'lini koreys tili ta'limida o'rgatish masalasi

**알다** fe'lining ko'p ma'nolilik xususiyatlari koreys tilini o'qitish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o'rganuvchilar dastlab bu fe'lni faqat

“bilmoq” ma’nosida qabul qiladilar. Biroq yuqori bosqichlarda ular **알다** fe’lining turli grammatik shakllarda boshqa ma’nolarni ham ifodalashini anglashlari zarur.

Boshlang‘ich bosqichda **알다** fe’lining “bilmoq”, “tanimoq”, “qila olmoq” kabi sodda va amaliy ma’nolarini o’rgatish maqsadga muvofiqdir. Masalan, **이름을 알다, 그 사람을 알다, 한국어를 읽을 줄 알다** kabi birliklar o’rganuvchilar uchun tushunarli va tez qo’llanadigan shakllardir.

O’rta bosqichda mazkur fe’lining “sezmoq”, “his qilmoq”, “baholamoq”, “taxmin qilmoq” kabi ma’nolari kengaytirilishi kerak. Bu bosqichda **맛을 알다, 마음을 알다, 그렇게 될 줄 알다, 사실인지 알다** kabi birikmalar asosida semantik farqlar tushuntiriladi.

Yuqori bosqichda esa **알다** fe’lining pragmatik va diskursiv qo’llanishlariga e’tibor qaratish zarur. Jumladan, **알겠어요, 알았어요, 알겠지?, 알 바 아니다, 알아서 하다** kabi birliklar muloqotdagi ohang, munosabat, rozilik, befarqlik yoki mustaqil qarorni bildirishi bilan muhimdir. Bunday shakllarni faqat lug‘aviy tarjima orqali emas, balki real nutqiy vaziyatlar asosida o’rgatish samarali hisoblanadi.

#### Xulosa

Koreys tilidagi **알다** fe’lining tahlili shuni ko’rsatadiki, mazkur fe’l oddiy “bilmoq” ma’nosi bilan cheklanmaydi. U koreys tilida insonning bilish faoliyati, sezgi tajribasi, hissiy holati, amaliy ko’nikmasi, baholashi, taxmini va kommunikativ munosabatini ifodalovchi keng semantik imkoniyatlarga ega bo’lgan ko’p ma’noli birlikdir.

**알다** fe’lining bosh ma’nosi “ma’lumot yoki bilimga ega bo’lish” semasiga asoslanadi. Shu semantik markazdan “tanimoq”, “idrok etmoq”, “sezmoq”, “his qilmoq”, “uddalay olmoq”, “baholamoq”, “taxmin qilmoq” va “qabul qilmoq” kabi hosila ma’nolar shakllanadi. Bu kengayish obyekt turi, grammatik konstruksiya va nutqiy kontekst bilan bog’liq holda yuzaga chiqadi.

Tahlil natijalariga ko’ra, **N 을/를 알다, -(으)ㄹ 줄 알다, -는지 알다, -으로 알다, 알겠다, 알 바 아니다** kabi shakllar **알다** fe’lining turli semantik va

pragmatik imkoniyatlarini namoyon qiladi. Ayniqsa, -(으)ㄹ 줄 알다 konstruksiyasining “qila olmoq” va “deb o‘ylamoq” ma’nolarini ifodalashi mazkur fe’lning grammatik-semantik jihatdan murakkabligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, **알다** fe’lining ko‘p ma’nolilik tizimini o‘rganish koreys tilining leksik-semantik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur fe’lni o‘quv bosqichlariga mos tarzda darajalab o‘rgatish koreys tilini o‘rganuvchilarning tabiiy, aniq va kontekstga mos nutq shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 국립국어원. 표준국어대사전. Seoul: National Institute of Korean Language.
2. 연세대학교 언어정보연구원. 연세 한국어사전. Seoul: Doosan Donga, 1998.
3. 21 세기 세종계획 형태분석 말뭉치.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Mirtojdiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. Toshkent: Fan, 1984.
6. Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. Oxford: Oxford University Press, 2010.
7. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
8. Cruse D. A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 2000.
9. Taylor J. R. Linguistic Categorization. Oxford: Oxford University Press, 2003.
10. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.